



## FARG'ONA VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINING RIVOJLANISH TARIXI

Mamajonova Zarnigor

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19603315>

### ARTICLE INFO

Received: 4<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 5<sup>th</sup> April 2026

Published: 16<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

*Pir Siddiq ziyoratgohi, Xo'ja Ahmad Valiy ziyoratgohi, Sadkak ota ziyoratgohi, Bibi Ubayda ziyoratgohi, Xo'jam Posho ziyoratgohi, Xizr buva ziyoratgohi, Xo'ja Ilg'or va Mulla Ismatulloh qori ziyoratgohi.*

### ABSTRACT

*Maqola Farg'ona viloyatidagi ziyorat turizmining tarixiy rivojlanishini, muqaddas ziyoratgohlarning ahamiyati va ularning xalq orasidagi e'tiqodiy qadriyatlarini o'rganadi. Maqolada ziyoratgohlarning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ahamiyati, xalq an'analari va urf-odatlarini, shuningdek, ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan zamonaviy chora-tadbirlar tahlil qilinadi.*

Farg'ona vodiysi, xususan Farg'ona viloyati qadimdan Markaziy Osiyoning muhim madaniy, diniy va savdo markazlaridan biri sifatida shakllangan. Bu hudud Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgani bois turli sivilizatsiyalar, dinlar va madaniyatlarning o'zaro tutashuv nuqtasiga aylangan. Natijada bu yerda ko'plab tarixiy-me'moriy obidalar, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar va diniy maskanlar vujudga kelib, ular nafaqat mahalliy aholi, balki uzoq hududlardan kelgan ziyoratchilar uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Ziyorat turizmi bugungi kunda turizm sohasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, u insonlarning diniy e'tiqod, ma'naviy poklanish va tarixiy merosni anglashga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Farg'ona viloyatida mavjud bo'lgan muqaddas maskanlar, jumladan, mashhur avliyolar maqbaralari, qadimiy masjid va madrasalar ushbu hududning ziyorat turizmi salohiyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida diniy erkinliklarning kengayishi, tarixiy merosga bo'lgan e'tiborning ortishi hamda turizm infratuzilmasining rivojlanishi ziyorat turizmining jadallashuviga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda diniy va ziyorat turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ushbu yo'nalishni iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylantirish hamda milliy madaniy merosni keng targ'ib etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat siyosati darajasida turizmning ushbu turiga alohida e'tibor qaratilib, huquqiy-me'yoriy baza takomillashtirilmoqda, infratuzilma rivojlantirilmoqda hamda ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida urg'u berilmoqda. Bu boradagi muhim hujjatlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-6165-son Farmon, ya'ni 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Mazkur farmon asosida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida turistlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari dasturi"da ichki va ziyorat turizmini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Jumladan, ichki turizm yo'nalishida faoliyat yurituvchi turoperatorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, respublikaning barcha hududlarini qamrab olgan holda arzon va ommabop turizm

mahsulotlarini ishlab chiqish hamda ularni keng targ'ib qilish vazifalari ilgari surilgan. Bu esa, o'z navbatida, aholi o'rtasida sayohat madaniyatini oshirish, tarixiy-madaniy meros ob'ektlariga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish hamda hududlar turistik salohiyatini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Farg'ona vodiysida islom dini qadim zamonlardan boshlab keng yoyilib, aholining ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab kelgan. Ushbu hududdan ko'plab allomalar, donishmandlar va mutafakkirlar yetishib chiqqani, ularning ilmiy va ruhiy merosi xalq orasida chuqur e'tirof etilgani natijasida turli muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar shakllangan. Bu maskanlar nafaqat diniy e'tiqod markazlari, balki tarixiy-madaniy meros ob'ektlari sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Farg'ona vodiysi hududida joylashgan viloyatlarda 200 dan ortiq ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar rasmiy ro'yxatga olingan bo'lib, ular ziyorat turizmining asosiy resurs bazasini tashkil etadi [5:3]. Mazkur ob'ektlar orasida mashhur avliyolar maqbaralari, qadimiy masjidlar, tarixiy qabristonlar hamda xalq orasida e'zozlanadigan muqaddas maskanlar mavjud. Ularning har biri o'ziga xos tarixiy shakllanish jarayoni, me'moriy xususiyatlari va diniy-ma'naviy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida ziyoratgohlar soni va ularning xilma-xilligi hududning boy diniy-ma'naviy merosga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi. Mazkur hududda joylashgan muqaddas maskanlar nafaqat tarixiy ahamiyati, balki xalq orasidagi e'tiqodiy qadri bilan ham ajralib turadi. Jumladan, Pir Siddiq ziyoratgohi, Xo'ja Ahmad Valiy, Sadkak ota, Oq mozor ota, Langar ota, Huvaydo. Sarmazor, Bibi Ubayda, Xo'jam Posho, Xizr buva, Xo'ja Ilg'or va Mulla Ismatulloh qori kabi ziyoratgohlarni misol sifatida keltirish mumkin [4:24].

Ushbu ziyoratgohlarning aksariyati xalq orasida avliyolar, diniy arboblardan yoki tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lib, ular haqida turli rivoyat va afsonalar shakllangan. Natijada bu maskanlar asrlar davomida ziyoratchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Har bir ziyoratgohning o'ziga xos tarixi, shakllanish jarayoni va hududiy ahamiyati mavjud bo'lib, ular Farg'ona vodiysida ziyorat turizmining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Xo'ja Ilg'or va Mulla Ismatulloh qori ziyoratgohlari Farg'ona viloyatidagi muhim tarixiy-madaniy meros ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ziyoratgoh Farg'ona viloyatining Rishton tumanida joylashgan bo'lib, hududdagi eng mashhur diqqatga sazovor maskanlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu majmua o'z ichiga maqbaralar, chillaxona g'ori, qadimiy hujralar (qorixonalar), ayvonlar, bog' va oromgohlarni qamrab olgan murakkab me'moriy ansamblni tashkil etadi.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, mazkur ziyoratgoh XIX asrda bunyod etilgan bo'lib, u mahalliy aholi orasida katta e'tiqod bilan bog'liq muqaddas maskanlardan biri sanaladi. Ziyoratgoh Xo'ja Ilg'or nomi bilan bog'liq holda shakllangan bo'lib, keyinchalik bu yerda Mulla Ismatulloh qori maqbarasi ham qad rostlagan. Majmua tarkibidagi 3-4 metr chuqurlikdagi g'or va chillaxona qadimda diniy ta'lim oluvchilar hamda zohidlar uchun xizmat qilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi qaroriga muvofiq, Xo'ja Ilg'or va Mulla Ismatulloh qori ziyoratgohi Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan. Bu esa mazkur majmuaning tarixiy, me'moriy va ma'naviy ahamiyati yuqori ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu asosda ziyoratgoh davlat muhofazasiga olinib, uni restavratsiya qilish, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilangan [2].

Xo'ja Ahmad Valiy ziyoratgohi Farg'ona viloyatidagi muhim madaniy meros ob'ektlaridan biri bo'lib, u nafaqat diniy maskan, balki hududning tarixiy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutuvchi diqqatga sazovor joy hisoblanadi. Mazkur ziyoratgoh Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanida, xususan "Vodil" MFY hududida joylashgan bo'lib, o'zining maqbarasi va qadimiy chinor daraxtlari bilan mashhurdir. Ushbu obyekt XX asrga oid bo'lib, mahalliy aholi orasida katta e'tiqod bilan bog'langan muqaddas maskanlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Ziyoratgoh davlat mulki hisoblanib, u Farg'ona viloyati madaniy meros boshqarmasining operativ boshqaruv huquqi asosida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, obyekt "Vaqf" xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida birlashtirilgan bo'lib, bu uning diniy-ma'naviy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Xuvaydo ziyoratgohi Farg'ona viloyatidagi muhim tarixiy-madaniy meros obyektlaridan biri bo'lib, u hududning diqqatga sazovor maskanlaridan sanaladi. Mazkur majmua o'z ichiga maqbara, xonaqoh, ayvonlar hamda turli bino-inshootlarni qamrab olgan bo'lib, ziyoratchilar uchun muqaddas va e'zozli maskan hisoblanadi. Ushbu ziyoratgoh XIX asrga oid bo'lib, Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanida, xususan "Chimyon" MFY hududida joylashgan.

Ziyoratgoh davlat mulki hisoblanib, u Farg'ona viloyati madaniy meros boshqarmasining operativ boshqaruv huquqi asosida yuritiladi. Shu bilan birga, obyekt "Vaqf" xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida birlashtirilgan bo'lib, bu uning faoliyatini samarali tashkil etish hamda ziyoratchilar uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Pur Siddiq ziyoratgohi Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahrida joylashgan muhim tarixiy-diniy maskanlardan biri hisoblanadi. Ushbu ziyoratgoh shaharning Yo'rmado'z MFY hududidagi Navoiy ko'chasida joylashgan bo'lib, XVII asr o'rtalarida bunyod etilgan. U o'zining qadimiyligi, tarixiy ahamiyati hamda xalq orasidagi yuksak e'tiqodiy mavqei bilan ajralib turadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Subxonqulixon hukmronligi davrida Pur Siddiq mozoriga katta e'tibor qaratilib, unga vaqf yerlari ajratilgan. Keyinchalik mazkur ziyoratgohga tegishli bo'lgan masjid va madrasa faoliyatini ta'minlash maqsadida Marg'ilonning Pur Siddiq va To'qsoba mahallalaridagi do'konlar, shuningdek Toshloq, Oqariq, Varzak, Zarkent, Qaqir va Boyiston qishloqlaridagi yerlar ham vaqf mulkiga aylantirilgan. Ushbu mulklar soliqlardan ozod etilgan bo'lib, bu holat ziyoratgohning iqtisodiy jihatdan mustahkam faoliyat yuritishiga imkon yaratgan [3:148].

Bundan tashqari, Qo'qon xonlari — Madalixon va Xudoyorxon tomonidan ziyoratgoh mutavalliyalariga maxsus yorliqlar berilgani uning davlat va hukmdorlar tomonidan ham e'tirof etilganini ko'rsatadi. Bu hujjatlar ziyoratgohning huquqiy maqomini mustahkamlash hamda uning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgan.

Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, ushbu majmuada dastlab Abu Bakr Siddiq nomi bilan bog'liq bo'lgan sag'ana mavjud bo'lib, u Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning yaqin sahobalaridan biri sifatida e'zozlanadi. Shu bois mazkur maqbara "Pir Siddiq" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Vaqt o'tishi bilan maqbara atrofida masjid, darvozaxona, kaptarxona va minora kabi inshootlar qurilib, yaxlit me'moriy majmua shakllangan.

Sadkak ota ziyoratgohi Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi Sadkak qishlog'ida joylashgan qadimiy ziyorat maskanlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ziyoratgohning qachon va kim tomonidan bunyod etilgani haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan bo'lsa-da, uning XIX asrga oid qozilik hujjatlarida qayd etilgani ushbu maskanning ancha qadimiy ekanligini ko'rsatadi.

Ziyoratgohning dastlabki me'moriy inshootlari bizgacha yetib kelmagan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, u ikki marotaba — 1938 va 1986-yillarda buzib tashlangan bo'lib, bu davrlar diniy maskanlarga nisbatan salbiy munosabat hukm surgan davrlar bilan bog'liqdir. Shunga qaramay, ushbu ziyoratgoh xalq orasida o'z ahamiyatini yo'qotmagan va ziyoratchilar tomonidan muntazam ravishda ziyorat qilib kelingan [5:181].

Sadkak qishlog'i Farg'onadan Qo'qon tomonga chiqish yo'lida, tog'lar orasida joylashgan bo'lib, uning tabiiy manzarasi ziyoratgohning jozibadorligini yanada oshiradi. Qishloq yuqorisida joylashgan yetti buloq, ularning atrofidagi daraxtzorlar hamda qir yonbag'rida joylashgan maqbara hududga o'ziga xos muqaddaslik va sokinlik baxsh etadi. Bu yer nafaqat diniy maskan, balki tabiat bilan uyg'unlashgan muqaddas qadamjo sifatida ham e'tirof etiladi.

Ziyoratgoh xalq orasida “Sadkak bobo mozori” nomi bilan ham mashhur bo‘lib, bu yerga atrof shahar va tumanlardan ko‘plab ziyoratchilar tashrif buyurib kelgan. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida qabrning taxminiy yoshi 800–850 yil atrofida ekanligi aniqlangan [7:121]. Bu esa Sadkak ota ziyoratgohining Farg‘ona vodiysidagi eng qadimiy muqaddas maskanlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Bibi Ubaydo ziyoratgohi Farg‘ona viloyati Buvayda tumani, Buvyada qishlog‘ida joylashgan muqaddas ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Ushbu ziyoratgoh majmuasi tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi va Bibi Ubaydo xonim nomi bilan ataladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ziyoratgoh 10–11 asrlardan buyon mavjud bo‘lib, u Bibi Ubaydo xonim yashagan joylar ustida barpo etilgan. Shu sababli maskan nafaqat diniy, balki tarixiy ahamiyatga ham ega.

2005-yilda Bibi Ubaydo ziyoratgohi butunlay ta‘mirdan chiqarilgan. Mazkur ta‘mirlash ishlarida majmua tarkibidagi har bir inshoot qayta qurilgan va yangilangan [6:76]. Natijada ziyoratgoh bugungi kunda nafaqat tarixiy ob‘ekt sifatida, balki faol diniy maskan sifatida ham xizmat qilmoqda. Ta‘mirdan so‘ng mazkur muqaddas maskan yilning har bir faslida ziyoratchilar bilan gavjum bo‘lib, mahalliy aholi va xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

Bibi Ubaydo ziyoratgohi Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va hududning diniy-ma‘naviy hayotini boyituvchi markaz sifatida e‘tirof etiladi.

Farg‘ona viloyati ziyorat turizmi boy tarixiy, diniy va madaniy merosga ega hudud sifatida e‘tirof etiladi. Viloyatdagi ziyoratgohlar va boshqa muqaddas maskanlar – nafaqat diniy faoliyat, balki me‘moriy yodgorlik va xalq e‘tiqodining markazi sifatida shakllangan. Ularning ko‘pligi va xilma-xilligi Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

So‘nggi yillarda respublika darajasida diniy va ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib, ziyoratgohlar davlat muhofazasiga olingan, ta‘mirlash va restavratsiya ishlari bajarilgan. Bu esa hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini oshirishga, shuningdek, milliy madaniy merosni asrab-avaylashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlari xalq orasidagi e‘tiqodiy qadri, diniy marosim va urf-odatlar bilan ham ajralib turadi. Bu maskanlar nafaqat ma‘naviy poklanish, balki tarixiy xotira va madaniy merosni saqlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu tariqa, Farg‘ona viloyatidagi ziyorat turizmi o‘zining tarixiy ildizlari va zamonaviy rivojlanish imkoniyatlari bilan hududni jozibador turistik mintaqaga sifatida namoyon etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-son qarori
3. Abdulahatov N., Eshonboboyev O‘. Ko‘hna Marg‘ilon ziyoratgohlari. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2007
4. Axmedov J. Farg‘ona vodiysi: tarix va zamonaviylik. — Farg‘ona: «Farg‘ona» nashriyoti, 2019.
5. Eraliyev B., Ostonaqulov I., Abdulahatov N. “O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Farg‘ona viloyati” T.: “Turon Zamin Ziyo”., 2014.
6. Sharipova N.A., Muhammadjonova J. Bibi Ubayda ziyoratgohi va Buvayda tumanining tarixiy-madaniy merosi. – Qo‘qon: Qo‘qon universiteti, «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida, 2025. – T. 2, № 4.

7. Tursunov A.Q., Razzaqov B.T. Farg'ona vodiysining tarixiy-madaniy yodgorliklari. — Toshkent: Fan, 2018.



INNOVATIVE  
ACADEMY